

VOLUME-1, ISSUE-12

O'ZBEKISTON FOND BOZORI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI

Ermetov Amirbek Ismailovich

Xiva shaxar Boxovuz kucha 2 Uy, Mamun NTM

Annotatsiya: Zamonaviy iqtisodiyotda qimmatli qog'ozlar bozori juda muhim o'rinni egallaydi. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish va rivojlanadirish uchun samarali iqtisodiy siyosat yurgizish bilan bir vaqtida, moliyaviy soxada institutional isloxitlar o'tkazilishi lozimligi ayni haqiqatdir. Maqolada rivojlanayotgan fond bozorining mazmuni, uning faoliyat qilishining o'ziga xos xususiyatlari hamda uning mamlakatlarning iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari bilan bog'liqligi o'rganilgan, O'zbekiston Respublikasida fond bozorining amal qilish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: qimmatli qog'ozlar, qimmatli qog'ozlar bozori, aktsiyalar, obligatsiyalar, birja, investor, mulk huquqi.

Bozor iqtisodiyotining muhim segmentlaridan biri – bu fond bozori hisoblanib, u vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini qimmatli qog'ozlarga joylashtirishga va qayta taqsimlash orqali maqsadli joylashuvini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday maqsadlarga qimmatli qog'ozlar bozorining an'anaviy va noan'anaviy segmentlari hisoblangan qimmatli qog'ozlarning barcha turlari o'z samarasini bergandagina erishiladi. Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlarni joylashtirish, ular bilan oldi-sotdi qilish kabi barcha operatsiyalarni o'z ichiga oluvchi muomalalarni asosan tijorat banklari amalga oshiradi. Bu ularning, avvalo, ustav kapitalini oshirish darajasini ta'minlasa, ikkinchidan, bozorlardagi tijorat faoliyati yordamida chet eldag'i bo'sh kapitallarni xarakatga keltiriladi. Shuning uchun, ayni paytda qimmatli qog'ozlarning barcha instrumentlari to'liq va samarali ishlashi uchun mazkur bozorlar infratuzilmasini zamon talablari asosida rivojlanirish davlat darajasiga ko'tarilishini talab etmoqda. Mamlakatimizda esa fond bozori infratuzilmasining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni chuqurroq tahlil qilish va unda inson manfatlariga qaratilgan aniq maqsadlar belgilanganligi bu vazifaning davlat darajasiga ko'tarilganligini yanada yorqin ifodalaydi. Xususan; O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "...moliya bozorlari, jumladan, fond bozorini rivojlanirish ham yangi iqtisodiy sharoitda asosiy maqsadlarimizdan biri bo'lishi kerak. Yangi moliyaviy instrumentlarni

VOLUME-1, ISSUE-12

joriy etish va obligatsiyalar chiqarish orqali bank xizmatlari ko‘lamini yanada kengaytirish, ilg‘or axborot texnologiyalari asosida bank tizimini rivojlantirish zarur” deb ta’kidlaganida mutaxassislar va keng jamoatchilikning e’tiborini aynan mana shu dolzarb masala - milliy fond bozorini yanada rivojlantirishga qaratdi. Yuqoridagi holatlar, fond bozorlari infratuzilmasini zamon talablari asosida rivojlanishi uchun avvalo shu bozorlarga chiqarilayotgan qimmatli qog‘ozlarning yuqori likvidligi, bozorning kapitallashuv darajasi, daromadliliqi, kapitalni oshirish kabi xususiyatlarini ta’minlash uchun hizmat qiladi.

Moliyaviy globallashuv sharoitida moliya bozorini xalqaro miqyosda rivojlantirish, investitsiyalardan samarali foydalanishga qaratilgan masalalarning echimiga erishish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqot natijalari asosida moliya bozorining milliy va xalqaro tizimlarini rivojlantirishga urg‘u berilmoqda hamda uzluksiz ravishda takomillashtirilmoqda.¹ Ammo, yirik kompaniyalarning aktsiyadorlik kapitali tuzilmasida davlat ulushining yuqoriligi, moliya bozori orqali investitsiya jalb etishni takomillashtirish, moliyaviy instrumentlar likvidlilagini oshirish, jahon kapital bozoriga integratsiyalashuvini ta’minlash orqali moliyaviy resurslar jalb qilishni kengaytirish, qimmatli qog‘ozlarning ikkilamchi bozorini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb ahamiyatga ega. Ma’lumki, O‘zbekiston iqtisodiyotda hozirgi vaqtida amalga oshirilayotgan tuzilmaviy o‘zgarishlar, eng avvalo fond bozori bilan bevosita bog‘liq bo‘lib kelmoqda. Chunki Respublikada rejalashtirilgan investitsiya programmasini amalga oshirishda o’tish davriga xos bo‘lgan moliyaviy resurslarning chegaralanganligi sezilmokda. Shuning uchun ham fond bozorining qimmatli qog‘ozlaridan samarali foydalanish, ularning eng qulay shakllaridan foydalanish muxim masalalardan biri bo‘lib kolmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-oktabrdagi fond bozorini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishida fond bozoridagi aksiyalarning jami qiymati 25 trillion so‘m bo‘lib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 6 foizga ham yetmasligi, bu ko‘rsatkich Singapurda 188 foiz, Malayziyada 112 foiz, Rossiyada 34 foizni tashkil etayotgani, shu bois 2020-2025-yillarda fond bozorini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish rejalashtirilganligi hamda erkin muomaladagi jami qimmatli qog‘ozlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatini 2025-yil oxirigacha kamida 10–15 foizga yetkazish bo‘yicha tegishli mutassadi tashkilotlarga vazifalar berilgan bo‘lib, qimmatli qog‘ozlarga bo‘lgan talabni ko‘paytirish, xorijiy birja, brokerlar va banklarni mamlakatimiz fond bozoriga jalb qilish chorralari muhokama

VOLUME-1, ISSUE-12

qilingan. Sug‘urta kompaniyalariga aktivlarining ma’lum foizini fond bozoriga yo‘naltirish, banklarga birlamchi bozorda yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlarni xarid qilish uchun ruxsat berish masalalari ko‘rib chiqilgan. Shu qatorda, investorlar va minoritar aksiyadorlar huquqi himoyasini kuchaytirish, dividendlar to‘lash va undirishni takomillashtirish zarurligi ta’kidlandi. Bundan tashqari xalqaro moliyaviy hisobot va xalqaro audit standartlariga o‘tish bo‘yicha topshiriqlar berilgan.

Fond bozori moliya bozorining bir qismi bo‘lib, qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va ularning savdosida ixtisoslashgan bozor hisoblanadi. Fond bozorining asosiy vazifasi investitsiyalarni, ya’ni kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va texnika ravnaqiga zarur investitsiya mablag‘larini to‘plash hamda taqsimlash, qimmatli qog‘ozlar paketlaridan foydalangan hoda mulk egaligini o‘zgartirish, qimmatli qog‘ozlar chiqarish yordamida davlat qarzini moliyalashtirish va hokazolardan iborat. Fond bozori qimmatli qog‘ozlar bozorining katta qismini tashkil etadi. Qimmatli qog‘ozlar bozorining qolgan qismi o‘zining nisbatan kichik hajmlari tufayli maxsus nomni olmadi, shu sababli ko‘pincha qimmatli qog‘ozlar bozori bilan fond bozori tushunchalari bir xil ma’noda ishlatiladi. Fond bozori qatnashchilar kapital “iste’molchilar” (emitentlar) va uni “taqdim etuvchilar” (investorlar)dir. “Iste’molchilar” davlat, mahalliy hokimiyat organlari, yirik milliy va xalqaro kompaniyalar hisoblanadi. Investorlar esa institutsional (qimmatli qog‘ozlar bilan ish yurituvchi har xil moliyaviy kredit institutlari: tijorat va investitsiya banklari, sug‘urta jamiyatlari, pensiya fondlari va hokazo) va individual (xususiy shaxslar, shu jumladan, vechur biznesining uncha katta bo‘lmagan korxona egalari) guruhlarga bo‘linadi. Bizga ma’lumki, fond bozoriga investitsiyalarni jalb etishni rivojlantirishda siyosiy, makroiqtisodiy, mikroiqtisodiy va infratuzilmaviy omillar keng ta’sir etadi. Ushbu omilar ichida makroiqtisodiy omillar fond bozoriga bevosita va bilvosita ta’sir o‘tkazadigan omillardan biri hisoblanadi. Davlat budgetining holati fond bozori rivojlanish holatiga bevosita ta’sir qiladi. Agar budgetda xarajatlar daromadlardan oshib ketib, kamomad yuzaga keladigan bo‘lsa va ushbu kamomad pul emissiyasi orqali qoplansa, bu holat inflatsiya darajasining oshishiga olib keladi. Pirovard natijada fond bozoriga investitsiyalash sekinlashadi.

Xulosa: Rivojlanayotgan fond bozorini rivojlangan bozorga aylantirishning texnik vazifalari quyidagilardan iborat: jahon fond bozoriga samarali integratsiya qilish uchun zarur infratuzilmani ta’minlash va fond bozoridagi faoliyatni tartibga soluvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish. Ko‘pgina rivojlanayotgan fond bozorlariga xos

VOLUME-1, ISSUE-12

bo‘lgan muammo shundaki, rivojlanayotgan mamlakatlarda odatda fond bozori infratuzilmasini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan davlat va jamiyatning e’tibori yetarli darajada bo‘lmaydi, davlat tomonidan qo’llab-quvvatlanmaydi. Binobarin, fond bozorining rivojlanganligi uning mamlakat uchun qanchalik dolzarb va muhim ekanligiga bevosita bog‘liq bo‘lib, bu davlatning xohish va qat’iyatida o‘z aksini topadi. Shuningdek, davlatning siyosiy qo’llab-quvvatlovi milliy fond bozori manfaatlarini xalqaro moliya bozorlarida himoya qilish shaklida ham ayniqsa muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati.
2. Butikov I.L Qimmatli qog'ozlar bozori. – Toshkent: Konsauditinform, 2001. - 472 b
3. Azizov U.O‘. (2020) “Kapital bozori: Iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi drayver” <https://finance.uz/index.php/uz/fuz-menu-biznes-uz/6939-kapital-bozoriitisishtni-ta-minlovchidrajver>
4. Xojimatov R.X. (2019) Fond bozorini rivojlantirish xususiyatlari va istiqbolli bank vositalari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel.